

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.K.Kurbaniyazova</b>	
Milliy mentalitetning tilda namoyon bo'lishi .....	106
<b>Sh.D.Shodmonova</b>	
Jamoat xavfsizligini ta'minlash, unga qarshi tahdidlarni oldini olishning ijtimoiy zarurati .....	110
<b>A.I.Samijonov</b>	
"Xavfsizlik" va "Kiberxavfsizlik" atamasining mazmun-mohiyati va jamiyat hayotida xavflilik darajasini baholanishi .....	114
<b>N.X.Djalalova</b>	
Yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanish metodologiyasi .....	119
<b>I.Z.Nazarova</b>	
Yangi O'zbekistonda milliy san'at taraqqiyotining istiqbollari .....	123

---

#### ТАРИХ

<b>A.B.Musayev</b>	
Qo'qon xonligining tashkil topishi arafasida Farg'ona vodiysi .....	129
<b>Ф.А.Эгамбердиев</b>	
Некоторые вопросы использования института жалоб как способ защиты прав участников на досудебной стадии уголовного процесса .....	133
<b>M.M.Xolmatov</b>	
O'zbekistonda kollektivlashtirish asosida agrar sohaning isloh qilinishi va uning oqibatlari.....	138
<b>N.R.Israilov</b>	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati Lui Le Rua talqinida.....	144
<b>O.B.Nizomiddinov</b>	
Farg'ona vodiysida 1920-1930 yillarda ta'lim tizimining rivojlanishi: birinchi oliy ta'lim muassasaning tashkil etilishi .....	149

---

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>Q.V.Yo'ichiyev</b>	
O'zbek she'riyatida anor obrazining tadriji takomili .....	156
<b>A.Badalova</b>	
The effect of war to the inner world of characters in leo tolstoy's novel "War and peace" .....	161
<b>S.F.Yuldasheva</b>	
Xalq qissalarida Hazrati Xizr Alayhissalom obrazi .....	166
<b>D.I.Nazarova</b>	
Hozirgi aruziy she'rlarning qofiya tuzilishi .....	170
<b>S.A.Xodjayev, O.Y.Sobirjonova</b>	
Epik asar syujetida uchrashuv Motivining o'rni (L.Tolstoyning "Baldan so'ng" hikoyasi misolida).....	175
<b>M.R.Oxunova</b>	
Sharlotta Bronte "Jeyn Eyr" romanida xarakter tasviri .....	178
<b>L.Hasanova</b>	
Aesthetics of the literary direction romanticism .....	182
<b>Q.V.Yo'ichiyev</b>	
Abdulla sher sonetlari tahlili .....	186
<b>Z.F.Shukurova</b>	
"Tarixi Rashidiy" asarining hozirgi o'zbek adabiy tiliga tabdil talqini .....	192

---

#### TILSHUNOSLIK

<b>D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova</b>	
Metaforalarning poetik matndagi o'rni (Siddiq Mo'min ijodi misolida).....	195
<b>Z.V.Alimova</b>	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Zar" va "Zarra" asoslari bilan bog'liq leksemalar xususida .....	198



УО'К: 94(575.1)"13/14":923.1

**AMIR TEMUR HAYOTI VA DAVLATCHILIK FAOLIYATI LUI LE RUA TALQINIDA****ЖИЗНЬ И ГОСУДАРСТВЕННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ АМИРА ТЕМУРА В  
ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЛУИ ЛЕ РУА****LIFE AND STATE ACTIVITY OF AMIR TEMUR IN THE INTERPRETATION OF LOYS LE ROY****Israilov Nodir Rahimjonovich** 

Farg'onan davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

Maqolada XVI asrda yashagan fransuz tarixshunosi Lui Le Ruaning "Olamdagi narsalarning turliligi va o'zgaruvchanlik to'g'risida" nomli asarida Amir Temur tarixinini yoritilishi tahlil etilgan. Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatiga fransuz sharqshunosi tomonidan bildirilgan mulohazalar temuriylar davri manbalari asosida tahlil etilgan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil va muammoviy-xronologik metodlaridan foydalangan. Fransuz orientalisti tomonidan Amir Temur tarixi bo'yicha bildirgan fikrlari manbalar asosida tadqiq etilib, xato va kamchiliklar yuzasidan mulohaza yuritilgan.

**Аннотация**

В статье рассматривается освещение истории Амира Темура в труде французского историка Луи Ле Руа, жившего в XVI веке, под названием «О превратности, или разнообразии вещей во вселенной». На основе источников тимуридского периода проанализированы комментарии французского востоковеда о жизни и государственной деятельности Амира Темура. В своих исследованиях он использовал сравнительный анализ и проблемно-хронологические методы. На основе источников исследованы мнения французского востоковеда по истории Амира Темура, приведены размышления о допущенных им ошибки и неточностях.

**Abstract**

The article examines the coverage of the history of Amir Temur in the work of the French historian Loys Le Roy, who lived in the 16th century, entitled "On the vicissitude or variety of things in the universe". The reflections of the French Orientalist on the life and state activities of Amir Temur were analyzed based on the sources of the Timurid period. He used comparative analysis and problem-chronological methods in the research. The opinions expressed by the French orientalist on the history of Amir Temur were studied on the basis of sources, errors and shortcomings made by him were discussed.

**Kalit so'zlar:** Nin, Kir, Doro, Aleksandr Makedonskiy, Arshak, Hannibal, Yuliy Sezar, Konstantin, Atilla, Buyuk Karl, Amir Temur, Sulton Boyazid, Lui Le Rua, "Anqara jangi", Moskva, Misr sultonligi, Konstantinopol.

**Ключевые слова:** Нин, Кир, Дарий, Александр Македонский, Аршак, Ганнибал, Юлий Цезарь, Константин, Аттила, Карл Великий, Амир Темур, Султан Баязет, Луи Ле Руа, «Битва при Анкаре», Москва, Египетский султанат, Константинополь.

**Key words:** Nin, Cyrus, Darius, Alexander the Great, Arshak, Hannibal, Julius Caesar, Constantine, Attila, Charlemagne, Amir Temur, Sultan Bayezid, Loys Le Roy, "Battle of Ankara", Moscow, Egyptian Sultanate, Constantinople.

**KIRISH**

XVI asrning ikkinchi yarmiga Fransiyada qirollarning mutlaq monarxiyaga erishish istagi hamda mamlakatda diniy nizolarning avj olishi moziyning buyuk hukmdorlari qatorida Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini ilmiy jihatdan o'rganilishiga zamin yaratdi. Mazkur davrda Fransiyada kechayotgan diniy urushlar\* ni bartaraf etishda Amir Temurning diniy sohadagi faoliyatini o'tmishning yetuk hukmdorlari boshqaruvi bilan tahlil etish fransuz tarixshunoslarining muhim vazifalaridan biri hisoblangan. Shu bois, Lui Le Rua o'zining "Olamdagi narsalarning turliligi va o'zgaruvchanlik to'g'risida" nomli asarida qadimgi hamda o'rta asrlarda yashab, o'z boshqaruvi bilan tarixda chuqur iz qoldirgan dunyo yetakchilari faoliyatini Amir Temurning davlat tuzimi bilan qiyosiy tahlil etilgan holda yoritgan.

## TARIX

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.**

O'rganilayotgan mavzu bo'yicha ma'lumot beruvchi asar "Olamdagi narsalarning turliligi va o'zgaruvchanlik to'g'risida" nomli adabiyot bo'lib, Lui Le Ruaning mazkur tadqiqoti Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Muiniddin Natanziy, Ahmad Ibn Arabshoh, Fasix Havofiy, Xondamir, Haydar Mirzo kabi temuriylar davri muarrixlarining asarlari bilan qiyosiy hamda tanqidiy tahlil etilib, ilmiy xulosalar asoslantirildi. Shunindek, ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ilmiy qarashlarni tadqiq etishda ilmiylik, xolislik, tarixiylik tamoyillaridan kelib chiqib, qiyosiy tahlil uslubidan foydalanildi.

**NATIJA VA MUHOKAMALAR.**

Fransiyada Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini XVI asrda izchil o'rgangan sharqshunoslardan biri bu Lui Le Ruadir. Olim o'zining "Olamdagi narsalarning turliligi va o'zgaruvchanlik to'g'risida" nomli asarida moziyning buyuk hukmdorlari qatorida Amir Temur tarixiga ham to'xtalib o'tgan. Masalan, ushbu asarning to'qqizinchi bo'limida Amir Temur shaxsi va diniy hamda madaniy sohalardagi ishtiroki haqida so'z yuritilgan. Dastlab, Amir Temur Kaspiy dengizidan to'rt kunlik masofada bo'lgan "Laxarte" da tavallud topgan bo'lib, islom diniga e'tiqod qilmay, dindan juda uzoqda bo'lganligi to'g'risidagi xato ma'lumot, Lui Le Rua tomonidan qayd etilgan [9. 94-a]. So'ngra, Amir Temurni harbiy mahorat hamda aql-zakovatda, obro'-e'tibor va ulug'vorlikda Yevropa, Osiyo va Afrikaning barcha shahzodalaridan, hatto, Usmonli turklardan ham ustun bo'lgan deb tarif berilishiga o'z munosabatini bildirgan Lui Le Rua, Mavarounnahr hukmdoriga "Buyuk" deb nom berilganligini bejiz emasligini qayd etgan [9. 94-a]. Hattoki, barcha nasroniy va arab hukmdorlarini Amir Temur bilan taqqoslash noto'g'ri ekanligi, muallif tomonidan qayd etilgan [9. 94-a]. Shunindek, fransuz sharqshunosi Amir Temur tomonidan go'zal binolar, qishloqlar, boy va kuchli shaharlar, farovon hayat va barcha turdag'i nafis hunarmandlarga to'la yetti yuzdan ortiq liga\*ni boshqarganligini bayon etgan [9. 94-a]. Garchi, Amir Temurning davlat sarhadlarini hisoblashda Lui Le Rua juz'iy kamchilikka yo'l qo'ygan bo'lsa-da, ushbu ma'lumotlarni jiddiy xato sifatida ta'kidlash noo'r'in. Chunki, G'arbiy Yevropada XVI asrga qadar tarixiy kartografiya fani paydo bo'lmaganligi [5. 39], g'arb olimlari uchun sharq hududlari to'g'risida ma'lumot qayd etish davrida qiyinchiliklar tug'dirgan.

Lui Le Rua, mazkur asarining o'ninchi bo'limini buyuk shaxslarning kuchi, bilimi, ustunligi haqidagi masalalarga bag'ishlagan. Unda har bir davr almashinuvida faoliyati bilan shuhrat qozogan mohir sarkardalar to'g'risida so'z yuritilganda, XV asrni o'rganishni, yengilmas va buyuk Amir Temur tarixidan boshlash kerakligi ta'kidlangan [9. 97-a]. Bunga sabab sifatida fransuz olimi, o'zining bir nechta mulohazalari qayd etib o'tgan. Birinchidan, Amir Temur oddiy hayat tarzida voyaga yetib, atrofidagi insolarga mustaqillik g'oyasi yoyish orqali sardorlik qilgan; Dastlab, Amir Temurga ishonmagan ayrim shaxslar janglarda mag'lub bo'lishgan bo'lsa, aksincha, Mavarounnahr hukmdorini yetakchi sifatida hisoblab, uning oritdan ergashgan fuqarolar kamsitilingan hayat tarzidan kutilmagan baxtga erishishgan [9. 97-a]. Ikkinchidan, Amir Temur o'z tushunchasidan yuqori majburiyatlarni rejalahtirgan shaxs bo'lib, o'ylagan ishini amalga oshirishdan voz kechmagan. Avvalo, o'z mamlakati podshohligini qo'lgan kiritib, so'ngra, Parfiya va Eronni egallaydi; O'z yurishlarini g'arba qadar davom ettirib, barcha xalqlarni taslim etgan [9. 97-a, 97-b]. Taxminan 1400-yilda Osiyo imperiyasini ulkan qo'shini bilan qo'liga kiritib, Ispaniyaga qadar borishni reja qilgan; So'ngra, Afrika orqali sayohat qilib Osiyoga qaytgan [9. 97-a]. Garchi, Lui Le Rua tomonidan Amir Temur davlatchilik faoliyatining rivojlanish boshqichlariga oid ilmiy ahamiyatga ega ma'lumotlar bayon etgan bo'lsa-da, biroq, Ispaniya masalasida bildirgan fikri notog'ri. Chunki, Amir Temurning bosh maqsadi "Buyuk Ipak yo'lli" o'tgan mintaqalarda yetakchilikni qo'liga kiritish bo'lib, ushbu rejadan G'arbiy Yevropa hududlarini egallash o'r'in olamagan edi.

Shunindek, ushbu bo'limda Lui Le Rua Amir Temur harbiy yurishlari haqida shaxsiy fikr-mulohazalarini ham bildirgan. Dastlab, fransuz sharqshunosi, Usmonlilar imperiyasining Amir Temur tomonidan bo'ysundirilishi masalasi haqida so'z yuritib, Sulton Boyazidning "Anqara jangi"da mag'lubiyatga uchrashi, nafaqat Osiyo aholisi uchun muhim g'alaba bo'lgan, balki,

\* Izoh: Laxarte – bu Sirdayoning nomlanishi bo'lib, bu yerda muallif, hozirgi Qozog'iston Respublikasining O'tror shaxri atroflarini nazarda tutiyapti.

\* Izoh: Liga – bu masoфа o'lichov birligi bo'lib, 1 liga 4828 metrni tashkil etadi.

Movarounnahr hukmdoriga bo'yusunmagan boshqa xalqlarni ham juda qo'rqiitganligi bilan muhim ahamiyat kasb etganligiga ta'kidlab o'tgan [9. 97-b]. Amir Temurning Oltin O'rdadagi faoliyatidan o'ren olgan Moskva masalasiga ham muallif o'z munosabatini bildirgan. Unda bayon etilishicha, moskvaliklar Amir Temurga Rha\* daryosida bo'yida o'lpon to'laganliklari qayd etilgan [9. 97-b]. Moskvaliklardan tashqari no'g'aylor hamda bir nechta Kavkaz xalqlari ham o'z itoatkorliklarini Amir Temurga bildirishgan [9. 97-b]. Amir Temurning shimolda egallagan umumiy maydoni to'g'risida so'z yuritgan Lui Le Rua, ushbu hududlar Don daryosidan Kaspiy dengizigacha bo'lgan hududlarni tashkil etganligi ta'kidlab o'tgan [9. 97-b].

Lui Le Rua Amir Temurning "Yetti yillik" yurishlaridan o'ren olgan Misr sultonligiga qarshi olib borgan janglariga ham to'xtalib o'tib, ayrim bahs-munozaraga sabab bo'lgan ma'lumotlarni qayd etgan. Dastlab muallif, Amir Temur tomonidan Shom hududlariga qadar Sebaste\*, Tripoli\*, Antioxiya\*, Seleucie\* kabi hududlar kuchsizlantirilganligini ta'kidlagan [9. 97-b]. So'ngra, Suriya egallanib, Misr zabit etildi [9. 97-b]. Mag'lubiyatga uchragan misrliklar Sudanga qochishgan bo'lib, qumli cho'llar va suv muammosi sababli Amir Temur ularni taqib etish istamagan [9. 97-b]. Fransuz sharqshunosi Amir Temurning Misr sultonligiga qarshi olib borgan kurashini yoritishda ijobiy ma'lumotlarni bayon etish bilan birga, ayrim juz'iy kamchiliklarga yo'l qo'ygan. Masalan, Amir Temur tomonidan Smirna qal'asini zabit etilishi Shom yurishidan avval bo'lgan deb ta'kidlagani, muallifning ushbu jarayonga nisbatan dastlabki xatosi bo'lgan. Aslida ushbu hudud 1402-yilning oxirida Movarounnahr qo'shini tomonidan taslim etilgan edi [8. 267]. Ikkinchidan, Amir Temur Damashq shahrida bo'lgan hal qiluvchi jangda Misr sultoni Farajni butunlay tor-mor keltirgan edi. Shu bois, Shimoliy Afrika mintaqasiga qochgan misrliklarni taqib etish Amir Temur uchun zarur bo'limgan. Chunki, Amir Temurning Shom yurishlari davrida unga qarshi safarbar etilgan Misr Sultonligi armiyasi Movarounnahr qo'shiniga qarshi olib borgan bir nechta to'qnashuvlarda butunlay tanazzulga uchraganligi temuriylar davri manbalarida ham yoritilgan [4. 234-244].

Lui Le Rua Amir Temurning "Yetti yillik" yurishlaridagi faoliyatini yoritish mobaynida, Yaqin Sharq mintaqasidagi hukmdorlarga qarshi olib borgan harbiy taktikalariga ham to'xtalib o'tib, Movarounnahr hukmdorining harbiy mahoratini yuqori baholagan. Muallifning ta'kidlashicha, Amir Temur mohir qo'mondon bo'lib, havfsiz bo'limgan joylardan o'tib, mashaqqatli ishlarni amalga oshirishda jasur shaxs bo'lgan [9.97-b]. Amir Temur mazkur hududlarni egallahsha molivaviy boshqaruvchiga o'xshab, ushbu masalaga ham e'tibor qaratgani to'g'risida, fransuz sharqshunosi to'xtalib o'tgan [9.97-b]. Hattoki, bir nechta janglardagi g'alabalari bilan mashhur bo'lgan Sulton Boyazidga rahm-shafqat ko'rsatish, Amir Temurning rejasidan o'ren olganligi qayd etgan Lui Le Rua [9.97-b], mazkur masalani yoritishda ijobiy xulosaga kelganligini ta'kidlash o'rnlidir.

Lui Le Rua ushbu bo'limda Amir Temurning diniy sohadagi faoliyatiga ham qisqacha to'xtalib o'tgan. Dastlab, fransuz sharqshunosi, Amir Temur tomonidan o'zi egallagan hududlarda buzilmasdan qolgan ibodatxonalarga ziyon yetkazishga ruxsat berilmaganligini qayd etgan [9. 98-a]. So'ngra, ushbu yo'nalishdagি mulohazasini davom ettirib, Amir Temurning islam dinini qaysi davrda qabul qilganligi to'g'risida o'z munosabatini bildirgan. Muallifning fikricha, payg'ambarlar haqidagi rivoyatlar sabab Amir Temur Arabistoniga tashrif buyurgan va shu davrdan boshlab diniy faoliyatida o'zgarish bo'lib, islamga diniga qaytadan e'tiqod qilgan [9. 98-a]. Lui Le Rua, mazkur asarining to'qqizinchi bo'limida Amir Temurni islam diniga amal qilmaganligi to'g'risida ma'lumot berib o'tgan bo'lsa, o'ninchi bo'limda o'z fikrini bu masala yuzasidan o'zgartirganligini ko'rish mumkin. Garchi, muallif, Amir Temurning diniy muassalarga nisbatan olib borgan siyosati haqida to'g'ri ma'lumot bergen bo'lsa-da, Arabiston hududi bilan bo'g'liq jarayonni bayon etishda xatolikka yo'l qo'ygan. Chunki, Amir Temur islam diniga qattiq e'tiqod qiluvchi oilada tug'ilgan bo'lib, temuriylar davri manbalarida bu haqida ko'plab misollar keltirilgan. Biroq, mazkur manbalarning

\* Izoh: Rha – Volga daryosidir.

\* Izoh: Sebaste – Turkiyaning janubidagi Mersin viloyatining, Ayash qishlog'idan g'arbda joylashgan shahardir.

\* Izoh: Tripoli – bu yerda muallif Livandagi Tripoli shahrini nazarda tutayotgan bo'lib, Amir Temur tomonidan 1400-yilda mazkur shaharga qadar hududlarga kichik jangchilar guruhi jo'natilgan edi.

\* Izoh: Antioxiya – Turkiyaning janubidagi shahar bo'lib, VII asrda boshlab Antakya deb atalib kelmoqda.

\* Izoh: Seleucie – Silifke. Qadimda ushbu shahar sarkarda Salavka tomonidan bunyod etilgan bo'lib, uning sharifiga Salavkiya deb nomlangan. Bugungi kunda mazkur hudud Turkiyaning janubidagi Mersin shaharidan 90 km uzoqlikdagi shaharchaga to'g'ri keladi.

## TARIX

hech birida Amir Temurning Arabiston yarim oroliga kirib kelgani to'g'risida ma'lumotlar qayd etilmagan [4; 8; 3; 2; 6; 7].

XV-XVI asrlarda Amir Temur tarixini o'rgangan fransuz sharqshunoslari doirasida faqatgina Lui Le Rua, Mavarounnahr hukmdorining ilm-fan sohasida olib borgan faoliyatini yoritgan mutaxassisidir. Muallif, ushbu asarining o'ninchi bo'limida mazkur sohaga oid o'z mulohazalarini qayd etib, unda temuriylar renessansi haqida o'zining ijobjiy munsabatini bildirgan. Lui Le Ruaning fikricha, Amir Temur davridan boshlab tillar va barcha fanlarni tiklash ishlari boshlangan [9. 98-a]. G'arbiy Yevropada bunday natijalar esa, Franchesko Petrarka\* (1304-1374) s'ay-i-harakatlari natijasida shakllangani, fransuz sharqshunosi tomonidan bayon etilgan [9. 98-a]. Shunindek, o'ninchi bo'limning ilm-fan sohasiga oid ma'lumotlar qayd etilgan qismida, italiyalik hamda bir nechta olimlarning ishtirokini, temuriylar renessansiga monand qayd etilganligini ko'rishimiz mumkindir. Ushbu masala yuzasidan tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, garchi, Lui Le Rua Amir Temur davridagi fan va madaniyat haqida to'liq ma'lumot qayd etmagan bo'lsa-da, lekin, G'arbiy Yevropa uyg'onish davrida yashab, ijod etgan olimlar faoliyatini yoritishda [9. 98-a-98-b], Amir Temurning mazkur yo'nalishni rivojlantirishdagi ishtiroki, muallif tomonidan sinchiklab o'rganilgan.

Lui Le Rua ushbu asarining o'n birinchi bo'limdagi boblaridan biriga "Amir Temurni Nin, Sesostris", Kir, Doro, Aleksandr Makedonskiy, Arshak, Gannibal, Yuliy Sezar, Konstantin, Atilla, Buyuk Karl bilan qiyoslash" deb nomlagan [9. 108-a]. Ushbu bobda muallif, Amir Temurni yuqorida ismi qayd etilgan moziyning buyuk sarkarda va hukmdorlari faoliyati bilan solishtirib, o'ziga xos xususiyatlarini ochib bergan. Dastlab, Bobil podshosi Nin va Amir Temur faoliyati qiyosiy tahlil etgan muallif, ikki hukmdorning o'tmishi haqida quydagi fikrlarni bildirilgan. Garchi, Amir Temur Nin kabi podshohning o'g'li bo'limasa-da, falakning inoyati bilan butun Osiyo imperiyasini boshqardi. Va u (Nin – ta'kid bizniki, N.I.) jangda Baqtriyaliklar podshosi Zardushtni mag'lub etganidek, bu (Amir Temur – ta'kid bizniki, N.Islailov) tajovuzkor turklar podshosi Boyazidni yenggan [9. 108-a]. Mazkur masala yuzasidan o'z mulohazasini davom ettirgan fransuz sharqshunosi, Amir Temur tomonidan Imeon\* to'g'idan Volga daryosigacha bo'lgan hududlarda istiqomat qilgan barcha skiflar va tatarlar bo'ysundirilganligi ta'kidlagan [9. 108-b].

Shunindek, Lui Le Rua Amir Temurning madaniy va diniy sohalardagi ishtirokini, moziyning bir nechta hukmdorlari faoliyatları bilan solishirib yoritgan. Muallifning takidlashicha, Atilla diniy e'tiqodiga amal qilib, Rim papasi Leoning iltimosiga ko'ra, Rimga borishdan qaytib, Italiyanı tark etib, o'z vataniga qaytgan [9. 109-a]. Amir Temur ham ibodatxonalarining buzulishiga yo'l qo'ymadı va Arabistonga ziyon yetkamadi, chunki uning payg'ambari u yerda tug'ilgan edi [9. 109-a]. Misrga qaytgan Sesostris o'zini butunlay dinga va ibodatxonalar qurishga bag'ishladi; Buyuk Karl esa, monastirlarga asos soldi va Parijda universitetlarni tashkil eta boshladı; Konstantin butparastlik madaniyatiga chek qo'ydi va insonlarni xristian diniga ishontirdi va xristian cherkovlariga tushumlardan mablag' ajratdi hamda Konstatinopol shahrinı qurdi, Amir Temur Samarcand shahrinı qayta tikladi: ikkalasi ham o'zlarining shaharlarini o'ljalari bilan bezashdi [9. 109-a]. Shunindek, Lui Le Rua, Aleksandr Makedonskiy, Gannibal, Yuliy Sezar, Konstatin, Atilla, Buyuk Karl va Amir Temurni kabi sarkardalar va hukmdorlarning yana bir o'xshash jihatı etib, ularning katta qo'shinni boshqarganliklari qayd etgan [9. 109-a]. Fransuz sharqshunosi ushbu bobning so'nggi qismida Amir Temur tomonidan Usmonli tuklarni zabt etilishi masalasida yana bir bor o'z munosabatini bildirgan. Lui Le Ruaning fikricha, garchi turklar Amir Temurga mag'lub bo'lib, murakkab vaziyatga tushishgan bo'lsa ham, ushbu jarayondan muvaffaqiyatli chiqib, avvalgidan ham kuchliroq bo'lishganligini, ta'kidlaydi [9. 109-a]. Darhaqiqat, usmoniy sultonlari Amir Temur bilan to'qnashuvdan so'ng tez orada o'z mamlakatlarining avvalgi mavqeini tiklashgan bo'lib, sulton Murod I (1421-1451) va Murod II (1451-1481) lar davrida qo'ldan ketgan hududlarni o'z davlatlari tasarrufiga qaytarib olgan [1. 738]. Hattoki, 1453-yilda Konstatinopolni egallahib, Vizantiya imperiyasini tugatishgandır [1. 738-739].

## XULOSA

\* Izoh: Franchesko Petrarka – XIV asrda yashab, ijod etgan italiyalik olim va shoir bo'lib, Uyg'onish davrining buyuk gumanistlaridan biri bo'lgan.

\* Izoh: Sesostris – qadimgi Misrning afsonaviy shohlaridan biridir.

\* Izoh: Imeon tog'i – O'rta Osiyodagi tog' tizimining qadimgi nomi bo'lib, shu jumladan hozirgi Hindukush, Pomir va Tyan-Shandir.

XVI asrning ikkinchi yarmiga kelib Fransiyada qirollarning mutlaq monarxiya tartibotini o'rnatishga bo'lgan intilishilari hamda mamlakatdagi diniy urushlarning kuchayishi tarixshunoslardan moziyning buyuk hukmdorlari faoliyati o'rganishni talab etdi. Shu bois, Lui Le Rua Amir Temurning davlatchilik sohasidagi boshqaruvini o'tmisning yetuk hukmdorlari faoliyati bilan qiyosiy tahlil etib yoritgan. Diniy nizolarni barataraf etishda Amir Temur tajribasidan andoza sifatida foydalanish zarurligi muallif tomonidan mazkur asarda alohida urg'u berilgan. Lekin, XVI asrga qadar temuriylar davriga oid manbalarning fransuz tiliga tarjima etilmaganligi, muallif tomonidan Amir Temur harbiy yurishlarini yoritishda ayrim kamchiliklarni yo'l qo'yilishiga sabab bo'lgan.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Всемирная История. / Отв. Редакторы: Е.М. Жуков, Е.С.Варга, В.П.Волгин, М.Я. Гефтер. – М.: Государственное издательство политической литературы, 1957. Т III. – 896 с.
2. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур: Темур тарихида тақдир ажойиботлари. /Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У. Уватов тайёрлаган. К.И.–Т.: Мөхнат, 1991. – 328 б.
3. Муниниддин Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний. / Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи – Гулом Каримий – Т.: Ўзбекистон. 2011. – 264 б.
4. Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўгирувчи – Ю.Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловичи ва маъсул мұхаррир – А.Ўринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ.Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О.Бўриевники), Ҳофизу Аброни «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и(«Илова»)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларини тузувчи – О.Бўриев.– Т.: Ўзбекистон, 1996. – 528 б.
5. Сайдбобоев З. А. Европада Ўрта Осиёга оид тарихий-картографик маълумотлар (XVI – XIX асрлар): Тарих фан. ном. дисс. – Тошкент, 2004. – 166 б.
6. Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи / Пер. предис. примеч. и указатели Д.Ю.Юсуповой. – Т.: Фан, 1980. – 346 с.
7. Ҳондамир Ғиёсиддин. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари – Жалил Ҳазратқулов, Исмоил Бекжонов, Изоҳлар муаллифлари – Ашраф Аҳмедов, Исмоил Бекжонов, – Т.: Ўзбекистон. 2013. – 1272 б.
8. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. /Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ахмад ва Ҳ.Бобобеков.– Т.: Шарқ, 1997. – 384 б.
9. Louis Le Roy. De la vicissitude ou variete des choses en l'univers, et concurrence des armes et des lettres par les premieres et plus illustres nations du monde, depuis le temps où àcommencé la ciuité, & memoire humaine iusques à present. – Paris: Chez Pierre l'Huilier, rue S. Iacques à l'Oliuier, 1576 – 118 p.